

## ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARIDA AXLOQ MASALALARI

**Shuxratov Doniyor Shuxrat o'g'li**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti Ma'naviyat asoslari yo'nalishi 1-kurs magistranti*

*Email: doniyorshuxratov4033@gmail.com*

*Orcid: 0009-0009-6895-5819*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlariga ta'rif berilgan. Abdulla Avloniyning dunyoqarashi, erkin va teran fikrlashi talqin qilingan. Shuningdek "Turkiy Guliston yoxud axloq asarida axloq"ning mohiyati va ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, maktab, ilm, ma'rifat, axloq, tarbiya, xulq, jadidchilik, mutafakkir, millat, jaholat, yomonlik, shaxs, kamolot

## ETHICAL ISSUES IN ABDULLA AVLONI'S "TURKISH GULISTAN OR ETHICS"

**Annotation.** This thesis provides a description of the unique features of moral views. The worldview of Abdulla Avloniy, as well as his free and profound thinking, is interpreted. Additionally, the essence and importance of morality in the work "Turkish Gulistan or morality" are revealed.

**Keywords:** Abdulla Avloniy, school, knowledge, enlightenment, morality, upbringing, behavior, jadidism, thinker, nation, ignorance, wickedness, individual, perfection, self-development

## ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В РАБОТЕ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ «ТУРЕЦКИЙ ГУЛИСТАН, ИЛИ ЭТИКА»

**Аннотация.** В данной статье описываются специфические особенности этических взглядов. Интерпретируются мировоззрение Абдуллы Авлони, его свободное и глубокое мышление. Также раскрывается сущность и значение этики в работе «Турецкий ГУЛИСТАН, или Этика».

**Ключевые слова:** Абдулла Авлони, школа, наука, Просвещение, этика, воспитание, поведение, неоклассицизм, мыслитель, нация, невежество, зло, личность, совершенство

## KIRISH

O'zbek jadidchiligining ma'rifatparvar adibi, dramaturg, pedagog bir qancha asarlar muallifi hisoblangan Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentning

Mergancha mahallasida dunyoga kelgan. Otasi Miravlon aka mayda hunarmanchilik - to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni ), Yarmarka bozorida (hozirgi San'at muzeyi atrofi) bo'z va chit bilan savdo qilardi. "Onamning oti Fotimadir" deb yozadi adib o'z tarjimai holida. Yoshligidan ilm egallashga qiziqqan Abdulla Avloniy dastlab eski maktabda, keyin madrasada tahsil olgan. Ammo tirikchilikning og'ir ahvoli adibning ilm egallashiga va o'z ustida erkin ishlashga imkoniyat bermaydi. Shuning uchun ham adib ko'p vaqtini ishlashga mardikorchiq qilib pul topishga sarflaydi, lekin har vaqt ilm izlash g'oyasi adibni hech qachon tark etmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak muallif xalqni savodli qilish, ilm-ma'rifatga, odob-axloqqa chorlash g'oyalarini har vaqt ilgari surgan. Avloniy zamonning og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitinin xalqning jaholat va nodonlikdan aziyat chekayotganini ko'rib, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash zarurligini chuqur anglab yetgan ijodkor hisoblanadi. Shuning uchun ham Avloniy axloqni inson kamoloti va millat ravnaqi uchun bosh mezon sifatida koradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Abdulla Avloniy merosi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda uning ma'rifatparvarlik qarashlari, milliy uyg'onish davri mafkurasi hamda axloqiy ta'lim konsepsiyasiga oid fikrlari alohida o'rganilgan. Xususan, Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek pedagogik tafakkuri tarixida axloqiy tarbiya masalalarini ilmiy-nazariy asosda yoritgan birinchi mukammal qo'llanmalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Asar mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va tarbiyaviy ahamiyati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda tahlil qilingan.

Avloniy axloqiy fazilatlarni komil inson tarbiyasining asosiy omili deb bilganligi ko'plab pedagogik tadqiqotlarda qayd etiladi. U jamiyat taraqqiyotini to'g'ri tarbiya bilan bog'lagan, axloqni "insonga zarur bo'lgan fazilatlar majmui" sifatida talqin etgan. Ilmiy adabiyotlarda ayniqsa uning asarda keltirilgan axloqiy tushunchalarni tizimli ravishda — ijtimoiy, aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan bog'lab sharhlagani dolzarb jihat sifatida ko'rsatiladi. Tadqiqotchilar Avloniyning axloqiy kategoriyalarni izohlash jarayonida Sharq mumtoz axloqshunosligiga tayanishi, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar g'oyalari bilan bog'liq jihatlarni rivojlantirganini alohida ta'kidlab o'tadi.

Adabiyotlarda Avloniyning pedagogik qarashlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitidan kelib chiqqan holda shakllangani ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Asarda millat ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odoblilik, rostgo'ylik, ilmu hunarga intilish kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari ustuvor o'rin tutgani ana shu tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotchilar fikricha, Avloniy axloqni nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Shu bois uning asari hozirgi zamon pedagogikasida ham metodik qo'llanma sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ilmiy manbalarda "Turkiy guliston yoxud axloq"ning tuzilishi, g'oyaviy yo'nalishi va tarbiyaviy uslublari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar Avloniy axloqiy ta'limda badiiy uslubni didaktik maqsadda qo'llaganini tasdiqlaydi. Asarda hikmatlar, she'riy parchalar, maqollar va real hayotiy misollardan foydalanilishi o'quvchilar ongiga tez singadigan ta'sirchan pedagogik usul sifatida e'tirof etilgan. Ko'plab tadqiqotchilar asarning til soddaligi, mazmun ravshanligi va ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalashdagi samaradorligini zamonaviy ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or metodlardan biri sifatida baholaydi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Avloniy merosining bugungi ma'naviy-ma'rifiy siyosat bilan bog'liqligi, yoshlar tarbiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslashdagi o'rni ham keng yoritilgan. Bu manbalarda asarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ma'naviyat darslari, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda qo'llanishi bo'yicha amaliy xulosalar berilgan. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Avloniy asari o'zbek milliy axloqshunoslik maktabining shakllanishi, qadriyatlar tizimini ilmiy asoslash va komil inson tarbiyasining nazariy-metodik poydevorini yaratishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy-ma'rifiy manbadir.

## MUHOKAMA

Tarixdan ma'lumki, sho'rolar tuzumi davrida ilm-ma'rifat egalari sanalgan jadidlar va ularning faoliyati qattiq qoralangan edi. Sababi shundaki xalqni ilmi, ma'rifatli va axloqli bo'lib tarbiya topishidan sho'ro hukumati har daqiqada havotirga tushgan, chunki xalq ma'rifat yo'lida davom etsa, sho'ro hukumati bizga

qarshi bosh ko'tarishi mumkun deb o'ylagan. Shuning uchun ham ular jadidlar faoliyatini qattiq nazorat ostiga olgan. Shunday tahlikali zamon bo'lishiga qaramay jadidlar xalqni ma'rifatli va axloqli qilishni birinchi o'ringa qo'ygan.

Xususan bunday mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan Avloniy turkiy xalqlar uchun bir qancha maktablar ochib ularda ta'lim-tarbiya berishni afzal ko'rdi. Xalqni ma'rifatli va axloqli qilish uchun Avloniy ko'plab darsliklar va bir qancha asarlar yozib uni xalqqa tarqatdi. Adibning odob-axloqqa doir asarlarida ichida eng shuhrat topib, sevib o'qilgani "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bo'ldi. Asar 1913-yilda yozilgan bo'lib, 1917 - yilda qayta nashr qilindi. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy asardir. Asar jamiyatni yangilashning eng to'g'ri yo'li axloqiy tarbiya ekanligini isbotlashga bag'ishlangan. Avloniy axloqni insonning eng katta boyligi deb hisoblaydi va shuningdek uni odob, tarbiya, or-nomus kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, axloq haqida fikr yuritiladi. Xususan Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini ham bayon etadi. Mazkur asar 64 bobdan iborat bo'lib har bir bob ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalariga bag'ishlanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Avloniy asarda odamlarni xulq, xatti-harakat nuqtaiy nazardan 2 guruhga bo'ladi: biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. U bunday deydi: "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini 2 ga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi xulq, agar tarbiyatsiz o'sib yomon ishlar ishlaydigan bo'lib ketsa, yomonlikka tavsif bo'lib, yomon xulq deb atalur". Avloniy inson birinchi navbatta xulqini va nafsini tarbiyalashi kerakligini eslatib o'tadi. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar, aksincha ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Avloniy axloqning insoniyat jamiyati uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlash bilan birga o'quvchilar uchun axloq tushunchasi shunchalik zarur ekanligini ham uqtiradi. U zamonga muvofiq ravishda qurilmish axloq shuning bilan bir qatorda tartib-imtizomga rioya qilishni eslatib o'tadi. Demak hamma narsa tarbiya va axloqqa bog'liqdir. Axloq ulamolari bularga jiddiy e'tibor berish kerak deb alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "Ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa, ta'limdan ajratib



bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir bu haqida fikr yuritganda men Abdulla Avloniyning Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman". Prezidentimiz Abdulla Avloniyni ma'naviy uyg'onishning asosiy g'oyaviy manbalaridan biri, buyuk ma'rifatparvar va tarbiya targ'ibotchisi sifatida e'tirof etadi. Avloniy axloqni millatning jon tomiri deb alohida ta'riflaydi, shuningdek komil insonni tarbiyalashga butun hayotini baxshida etganini ham ko'rish mumkundir. Avloniy yomon xulqlarning kelib chiqish sabablari va jamiyatga zarari o'ziga xos tarzda ochib beradi. Darvoqe buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nega deganda bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimi eng nomaqbul ko'rinishda faoliyat yuritayotgan edi. O'quvchilar ongiga odob-axloq tushunchalari o'rniga aksincha sovet tuzumi tomonidan o'ylab topilgan ta'lim dasturi singdirilar edi. Lekin mustaqilligimizning sharofati bilan butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, odob axloq tushunchalarini o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta ehtiyoj sezila boshladi. Shu boisdan bu ishlarga jiddiy yondashilib targ'ibot-tashviqot ishlari boshlab yuborildi.

### XULOSA

Xulosa yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Abdulla Avloniy mazkur asarida ilmni egallashda axloqiylikning ahamiyatini juda ardoqlaganini ko'rishimiz mumkundir. Turkiy Guliston yoxud axloq nafaqat axloqiy-didaktik darslik balki ma'rifatparvarlik, insonparvarlik va Vataparvarlik ruhida yozilgan yuksak asardir. Asarning g'oyalari bugun ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniy mazkur asar orqali butun bir avlodga axloqiy tarbiyani ko'rsatib beruvchi asosiy vositalarni tushuntirib bergan. Asarda berilgan chuqur g'oyalar shuni ko'rsatadiki, alloma o'z davri muammolariga juda teran yondashib, axloqiylikning tub ildizlarini aniq va lo'nda qilib ochib bera olgan. Mutafakkir yashagan dar uning idealidan qanchalik yiroq bo'lmasin inson va jamiyat axloqiy va aqliy komilligining real varianti u tomonidan ilmdan axloqqa o'tishda tasavvur qiligan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov.Yuksak ma'naviat yengilmas kuch.T-2008.39-b
2. A.Avloniy.Jadidlar.T-2022.4-b
3. A.Avloniy.Turkiy Guliston yoxud axloq.T-1992.4-b